

**HARBIY XIZMATCHILARNING MODDIY JAVOBGARLIGI.**

***Yursunov Davron Saydullo o'g'li***

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti  
1-bosqich kursanti.*

***Foziljonov Jamshidbek Sherzodbek o'g'li***

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti  
1-bosqich kursanti.*

***Patiddinov Ahliddin Fazliddin o'g'li***

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti  
1-bosqich kursanti.*

***Ismoilov Iqboljon Ibrohimjon o'g'li***

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti  
1-bosqich kursanti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Harbiy xizmatchilarning moddiy javobgarligi haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Harbiy xizmatchilar, harbiy xizmat, moddiy javobgarlik, harbiy qism, majburiyatlar.

Harbiy xizmat — fuqarolarning qurolli kuchlar harbiy qismlari va muassasalarida harbiy majburiyatni bajarishdan iborat davlat xizmati turi.

Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat (O'zbekistonda) — O'zbekiston fuqarolarining Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishdan iborat faxriy burchi. 1992-yil 3 iyuldagi 12chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy kengashining 10sessiyasi respublika Qurolli Kuchlarini tuzishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu sessiyada "Mudofaa to'g'risida", "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida" va "Muqobil xizmat to'g'risida"gi muhim harbiy qonunlar qabul qilindi. Harbiy qasamning yangi matni va qasamyod qildirish tartibi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mudofaa ishlari vazirligini O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirligiga aylantirish to'g'risidagi farmoni tasdiklandi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini to'ldirish "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq amalga oshiriladi. Unga ko'ra, harbiy xizmatga yaroqli bo'lgan va chaqiruv kuni 18 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmish yigitlar muddatli harbiy xizmatga chaqiriladilar. Xizmatni chaqiruvga binoan o'tayotgan oddiy askar, serjant va starshinalar uchun harbiy xizmat muddati — 18 oy (oliy ma'lumotli shaxslar uchun — 12 oy). Harbiy xizmatdan bo'shatilgan, shuningdek, muddatli harbiy xizmatga chaqirishdan ozod etilgan fuqarolar (salomatligining yomonlashgani tufayli harbiy hisobdan chiqarilganlardan tashqari) zaxiradagilar ro'yxatiga olinadilar. Zaxiradagi

harbiy xizmatga majburlar yoshiga qarab 3 darajaga bo‘linadi. 3daraja chegarasi umuman zaxirada bo‘lish yoshining chegarasi hisoblanadi.Oddiy askarlar, serjant va starshinalar, praporshchiklar va michmanlarning zaxirada bo‘lish yoshining chegarasi: 1darajadagilar uchun — 35 yoshgacha"; 2darajadagilar uchun — 45 yoshgacha; 3darajadagilar uchun — 50 yoshgacha.Harbiy xizmatchilar zaxirada bo‘lish yoshining chegarasiga yetgan bo‘lsalar yoki harbiytibbiy komissiya tomonidan salomatligiga ko‘ra harbiy xizmatni o‘tashga yaroqsiz deb topilsalar — harbiylar ro‘yxatidan o‘chirilgan holda iyete’foga chiqariladilar. Hozirgi kunda 12 oy oliy ma'lumotlilar uchun esa 9 oy etib belgilangan.[1]

Moddiy javobgarlik - mehnat huquqi bo‘yicha mehnat shartnomasi taraflari (xodim va ish beruvchi)ning bir-birlariga yetkazgan zararl qonunda belgilangan miqdor va tartibda qoplash majburiyati. Mehnat shartnomasi yoki unga qo‘shimcha ravishda tuzilgan yozma shakldagi kelishuvda, shuningdek, jamoa shartnomasipz. mehnat shartnomasi taraflarining moddiy javobgarligi aniqlashtirib qo‘yilishi mumkin. Bunda shartnoma bo‘yicha ish beruvchining xodim oldidagi javobgarligi qonunda nazarda tutilganidan kam, xodimning ish beruvchi oldidagi javobgarligi esa nazarda tutilganidan ko‘p bo‘lishi mumkin.[3]

Harbiy xizmatchilar o'ziga ishonib topshirilgan qurollarni va harbiy texnikalarni saqlash tartibini buzgan, belgilangan vazifa hamda majburiyatlarni bajarmagan harbiy xizmatchilar intizomiy va jinoiy javobgarlikka tortiladi. Intizomiy javobgarlik askarga jamoat tartibini va harbiy intizomni buzgan holatlarda qo‘llaniladi. Jinoiy javobgarlik bo‘yicha qonunbo‘zarliklar quyidagilar:[2]

bo‘ysunmaslik, boshliqqa qarshilik ko‘rsatib yoki uning xizmat vazifalarini bajarish vaqtida bo‘zilishga olib kelish;

boshliqqa nisbatan kuch ishlatib qo‘rqitish;

harbiy xizmatchini haqorat qilish; [4]

harbiy xizmatdan bosh tortish;

harbiy sirlarni oshkor qilish;

topshirilgan qurol va harbiy texnikalarni bo‘zish va yo‘qotish;

mashinalarni haydash qoidasini buzish;

jangovar navbatchilik, qorovul va ichki xizmat tartibini bo‘zish holatlaridir.

Harbiy xizmatchining xatti-harakatida jinoyat tarkibi borligi aniqlansa, komandir (boshliq) harbiy prokurorni xabardor qiladi, zarurat taqozosidan jinoiy ish qo‘zg‘ab, tergov boshlaydi. Xizmat majburiyatlarini bajarish paytida noto‘g‘ri harakat tufayli keltirilgan zarar uchun moddiy javobgarlikka tortiladi va intizomiy tartibda jazolanish moddiy javobgarlikdan saqlab qolmaydi. Muddatli harbiy xizmatchilar shaxsiy foydalanishida bo‘lgan kiyim-kechaklarni sovurib yuborsa, hisobsiz badalidan tashqari bahosini to‘liq to‘laydilar.Unga ko‘ra, harbiy xizmatchilar, oliy harbiy ta'lim muassasalarining kursantlari (tinglovchilari), harbiy yig‘inlarga chaqirilgan harbiy

xizmatga majburlar va safarbarlik chaqiruvi rezervidagi xizmatni o'tayotgan shaxslar harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida harbiy mol-mulkka – Qurolli Kuchlar tasarrufidagi harbiy obektlarga, binolar va inshootlarga, qurol-yarog' va o'q-dorilar, jangovar va boshqa texnika, o'zga moddiy-texnik vositalar va pul mablag'lariga yetkazilgan to'g'ridan to'g'ri haqiqiy zarar uchun moddiy javobgarlikka tortiladi. Lekin yuqorida qayd etilgan harbiy xizmatchilar agar komandirning, boshliqning buyrug'ini bajarishi yoxud asosli xizmat yoki xo'jalik tavakkalchiligi yoki boshqa qonuniy harakatlari natijasida zarar yetkazgan bo'lsa – moddiy javobgar bo'lmaydi. Harbiy xizmat majburiyatlarini bajarmayotgan paytda moddiy zarar yetkazgan harbiy xizmatchilar fuqarolik qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.[5]

Shuningdek, harbiy xizmatchilar o'z aybi bilan harbiy mol-mulkni talon-toroj qilgan, kamomadga yo'l qo'ygan, behuda sarflagan, yo'qotgan, qasddan yo'q qilgan, shikastlagan, ishdan chiqargan, qonunga xilof ravishda sarflagan hollarda yetkazilgan zarar uchun yoki qasddan sodir etilgan boshqa xatti-harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun, ularda jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi alomatlari borligidan qat'i nazar, moddiy javobgar bo'ladi. Harbiy xizmat majburiyatlarini bajarmayotgan paytda moddiy zarar yetkazgan harbiy xizmatchilar fuqarolik qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.

#### **Xulosa:**

Shuningdek, harbiy xizmatchilar o'z aybi bilan harbiy mol-mulkni talon-toroj qilgan, kamomadga yo'l qo'ygan, behuda sarflagan, yo'qotgan, qasddan yo'q qilgan, shikastlagan, ishdan chiqargan, qonunga xilof ravishda sarflagan hollarda yetkazilgan zarar uchun yoki qasddan sodir etilgan boshqa xatti-harakatlari tufayli yetkazilgan zarar uchun, ularda jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi alomatlari borligidan qat'i nazar, moddiy javobgar bo'ladi. Shuningdek, xizmatchilarni qonunga xilof ravishda ishdan bo'shatishda yoki boshqa ishga o'tkazishda aybdor bo'lgan komandirlar yoki sudning ishga tiklash to'g'risidagi qarorini bajarishni asossiz ravishda kechiktirgan rahbarlar ham yetkazilgan moddiy zararining o'rnini davlatga qoplab beradi. Zararning kelib chiqishi sabablarini, miqdorini va aybdor shaxslarni aniqlash uchun belgilangan tartibda tergovga qadar tekshiruvni yoki xizmat tekshiruvini o'tkazadi. Aniqlangan zarar unga aybdor bo'lgan harbiy xizmatchi rezervga bo'shatilganidan yoki iste'foga chiqarilganidan qat'i nazar, aniqlangan kundan e'tiboran uch yil ichida moddiy javobgarlikka tortiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Sotvoldiyev Chaqiriqqacha harbiy ta'limni tashkil etish va o'qitish metodikasi Toshkent-2010[1]
2. Erkaboyev.O.M. Armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiyaning ijtimoiy mohiyati. Toshkent-2020[2]
3. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash»o'quv dasturi 2017 y.[3]
4. «O'smirlarni chaqiriqqacha tayyorlash to'g'risidagi Nizomi» 2014 [4]